

---

## Buvayda tumanida aliment majburiyatini bajarmagan 4 nafar masuliyatsiz otalarga nisbatan sud qarori o'qildi

Majburiy ijro byurosi Buvayda tuman bo'limi ish yurituvida bo'lgan aliment undirish bilan bog'liq ijro hujjati bo'yicha uzoq muddatdan buyon aliment qarzdorligini to'lashdan bo'yin tovlab kelayotgan qarzdorlarga nisbatan to'plangan hujjatlar MJtKning 47-4-moddasiga asosan Jinoyat ishlari bo'yicha Buvayda tumani sudiga taqdim qilindi.

Mazkur ma'muriy ish JIB Buvayda tuman sudida ko'rib chiqilib, qarzdorlar ya'ni A.Sattarov 5,1 mln. so'm, A.Xaydarov 10,2 mln so'm, K.Qurbonaliyev 22,1mln so'm, M.Turdaliyev 153,1 mln so'm miqdorida aliment pullarni to'lashdan bo'yin tovlab kelganligi sababli sud qarzdorlarning 2 nafariga 15 sutkalik ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi, 2 nafari esa qarzdorlikni to'liq to'laganligi sababli MJtKning 271-moddasiga asosan ish yuritishdan tugatildi.

Byuroning Buvayda tumani bo'limi

2023-08-14 16:48:24